

## G'O'ZADA MIKROO'G'ITLARNING AHAMIYATI

**Begimqulov Chori Raxmanovich**

*q.x.f.n,*

**Baxramov Qaxramon Yunusovich**

*magistranti,*

*Termiz agrotexnologiyalr va innovatsion rivojlanish instituti.*

**Annotatsiya:** *Mikroelementlar fiziologiyasiga oid nazariy tadqiqotlarning kengayishi mikroo'g'itlarni qo'llashning amaliy usullarini takomillashtirishga erdam berdi va o'simliklarning makro va mikroelementlar bilan oziqalanishining birmuncha ratsional tizimini yaratilishiga olib keldi*

**Abstract:** *An extension of theoretical studies on the physiology of trace elements helped to improve the practical methods of applying microfertilizers and some aspects of plant nutrition with macro and micronutrients led to the creation of a rational system.*

**Аннотация:** *Расширение теоретических исследований по физиологии микроэлементов. помогли усовершенствовать практические приемы внесения микроудобрений и некоторые аспекты питания растений макро- и микроэлементами привело к созданию рациональной системы..*

**Kalit so'zlar:** *G'o'za, mikroelementlar, nav, hosildorlik, o'sish, barg, poya,*

G'o'za texnik ekinlar ichida eng qimmatlisi hisoblanadi. U asosan tolasi uchun o'stiriladi. Paxta tolasi juda keng miqyosda va turli maqsadlarda ishlatiladi. Umuman paxta ashyosi va o'simlikning turli qismlari xalq xo'jaligi uchun qimmatli xom ashyo manbai hisoblanadi

Paxta tolasidan, Chigitidan va o'simlikning boshqa kismlaridan hammasi bo'lib 1200 dan ortiq xil maxsulot olinadi. Paxta dunyoning beSh qit'asida-Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya va Evropada etishtiriladi. g'o'za o'stirshning Shimoliy areali Shimoliy kenglikning 38-470 parallelidan, janubiy chegarasi kenglikning 350 parallelidan (Avstraliya) o'tadi. Dunyo bo'yicha 89 dan ortiq mamlakat paxta yetishtirish bilan Shug'ullanib, asosiy paxta etishtiruvchi mamlakatlar AQSH, Xitoy, O'zbekiston, Hindiston, Turkiya, Misr, Pokiston, Braziliya, Avstraliya kabi davlatlar hisoblanadi. Bu mamlakatlar dunyo bo'yicha etishtirilayotgan jami paxtaning 80% dan ko'prog'ini beradi.

### BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Foydali harorat deganda o'rtacha havo haroratining 10 OS Yuqori bo'lgan haroratlar yig'indisi tushiniladi. Ya'ni g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosili

pishib etilishi uchun talab etiladigan jami samarali haroratlar yig'indisi. G'ozaning o'sishi va rivojlanishi uchun eng maqbul havo harorat 25 – 300S hisoblanadi. Havo haroratining 37-380S dan oshib ketishi g'ozga to'qimalarini qizdirib yuboradi, 40° va undan Yuqori harorat o'simlikka qattiq ta'sir qiladi, o'sishdan to'xtaydi. Shuning uchun yozning jazirama issiq paytlarida g'ozga ko'pincha tungi salqinda, ya'ni kunduzgi issiq qaytganda o'sadi. Harorat 1-2 0S bo'lganda, g'ozga nihollarini sovuq uradi, kuzdagi 3-4 0S daraja sovuq ham g'ozani nobud qiladi. Chigitning una boshlashi uchun eng past minimal (eng past) harorat 10-12°S daraja hisoblanadi. Ilmiy asoslangan tavsiyalarga ko'ra, tuproqning 0-10 sm chuqurligidagi harorat 12-14°S bo'lganda tukli Chigit, 14-16 °S darajada tuksiz Chigitlarni ekish ma'qul hisoblanadi.

G'ozga qisqa kun o'simligi bo'lganligi uchun yorug' kunning uzunligiga ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli tunning uzun, kunning qisqa bo'lishi maqbul hisoblanadi. Uzun kun Sharoitida o'simlikning rivojlanishi sekinlashadi, hosil tugishga kirishi kechikadi. Suv g'ozga hayotida eng muhim omillardan biridir. Birinchidan, suv etishmasa g'ozga maromida o'sib hosil bermaydi.

Ikkinchidan, tuproq va havoning ortiqcha namligiga chidash bera olmaydi (ayniqsa harorat past bo'lganda).

Sug'oriladigan dehqonchilik Sharoitida g'ozga Shag'al, singdirish qatlami birmuncha yuzaroq joylashgan yerlarda ham yaxshi o'saveradi, lekin bularda oziqa moddalar etarli miqdorda berilishi kerak

G'ozga Mineral oziqa elyementlaridan azot, fosfor, kaliyga talabchan. Azot etishmaganda barg rangi och bo'lib, o'sishi susayadi, tyemir etishmaganda xloroz (bargning rangsizlanishi) paydo bo'ladi, fosfor etishmaganda poyasi nimjonlashib, kasallikka chalinuvchan bo'ladi, kaliy etishmaganda tola va Chigit sifati pasayadi, hosil kamayadi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1 t paxta yetishtirish uchun oziq elyementlaridan 55-60 kg azot, 20-25 kg fosfor, 50-60 kg kaliy sarflanadi. Mikro elyementlardan 50 kg kalsiy, 10 kg oltingugurt, 10 kg magniy va Shuncha natriy, 2 kg gacha tyemir, 0,2 kg gacha bor, 50 g dan kamroq mis va 1,5 kg atrofida xlor talab etiladi.

G'ozaning rivojlanishiga mikroelyementlar katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, g'ozga gulining urug'lanish organlarida ko'plab to'planadigan bor elyementi changchining o'sish kuchini oshiradi

Pishish davrigacha g'ozaning vegetativ va reproduktiv organlariga o'zlashtirilgan mikroelementlar o'simlikda qayta taqsimlanadi, xususan ruxning qariyb 50 %i, mis, bor va molibdenning sezilarli qismi paxtaga (chigitli paxta) to'g'ri keladi

Ontogenez davrida g'ozaning mikroelementlarga talabi ularning singdirilishiga va mineral oziqalardan foydalanish qonuniyatlariga bo'ysunadi. G'ozaning mikroelementlarga talabi chigitning una boshlashi va unishidan to yalpi meva tugishgacha doimiy ortib boradi, bu qo'llaniladigan mikroo'g'itlarning dozasi, muddati va usulini to'g'ri belgilashga bog'liq.

Ayniqsa, dastlabki rivojlanish fazasi mas'uliyatli davr hisoblanadi. Chigitlarning una boshlashi va urug'pallalar paydo bo'lishida, chinbarglik davrida o'simlikning ildiz tizimi zaif rivojlanadi, shuning uchun ularni mikroelementlar, asosan bor bilan yetarlicha ta'minlash nihoyatda muhim hisoblanadi. Dastlabki rivojlanish fazasida bor yetishmasligi o'simlikning ildiz va yer ustki qismining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu davr - g'ozaning borga bo'lgan birinchi kritik davri hisoblanadi. Cu, Zn va boshqa mikroelementlarning zaxirasi chigitda yetarli miqdorda bo'lishi (haqiqatda, agar tuproq mikroelementlar bilan yetarlicha ta'minlangan bo'lsa) o'simlikni qulay o'sib, rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, chigitni mikroelementlarning kuchsiz eritmasi bilan ivitish ham chigitni unishiga, g'ozani o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shonalash va gullash fazasida, ayniqsa meva tugish davrida mikroelementlar yetishmasligi o'simlikning rivojlanishini va meva tugishini kuchli cheklab qo'yadi, hosilni kamaytiradi va uning sifatini pasaytiradi, buni rux misolida yaqqol ko'rish mumkin

G'ozani mikroelementlar bilan oziqalanishining biologik xususiyatlari Bor, rux, mis, marganes, molibden va kobalt singari oziqa element larni o'simlik kam miqdorda talab qiladi, shuning uchun ham ular mikroelementlar deb nomlanadi. Lekin, ayrim oziqa elementlarning roli shunchalikki, ya'ni ularni organik modda paydo bo'lishidagi bir qator biokimèviy jaraènlardagi roli shunchalik yuqoriki, uni miqdor bilan o'lchab bo'lmaydi. Mikroelementlar fermentlar yoki ularni faollashtiruvchi birikmalar va oqsillarning asosiy qismi hisoblanib, nuklein kislotalar va oqsil biosintezidagi ahamiyati nihoyatda katta, binobarin, ular o'simlik xujayralaridagi turli birikmalarning tezligi va moddalarning energiya almashinuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ular xujayraning fiziologik muhim markazini quyushtirishda ishtirok etadi, ko'pchilik hollarda oqsil, nuklein kislota va boshqalar bilan bog'langan hoda uchraydi. O'simlikda mikroelementlar miqdori juda ham kam bo'lib, foizning mingdan, hatto yuz mingdan bir ulushini tashkil etadi. Lekin, bu mikroelementlar shunchalik kam miqdorda uchrashiga qaramay, organizmning haèti uchun zarur bo'lgan eng muhim jaraènlarda ishtirok etadi. O'simliklar oziqalanishidagi asosiy qonuniyatlarni bilish ularning oziqalanish rejimini to'g'ri boshqarishga imkon beradi. O'simlikning rivojlanish fazalari bo'yicha oziqa elementlar miqdorining yetarli bo'lishida hosildorlik oshadi, o'simlikning rivojlanish sur'ati, vegetativ va

generativ organlar nisbati, mahsulot sifati va ximizmi o'zgaradi. G'ozda mikroelementlar tanqisligiga sezgir va Respublikamizning karbonatli tuproqlari sharoitida mikroo'g'itlar qo'llanilishiga talabchan. O'simlik nisbatan ko'p mikroelementlarni tuproqdan o'zlashtiradi va ularning asosiy qismi paxta, chanoq, poya va qisman barglari bilan tuproqqa qaytmas darajada yo'q bo'lib ketadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoshimov F.Sanaqulov A. Sodiqova U. Samarqand vohasi tuproqlarida mis mikroelement iva misli mikroo'g'itlarni qo'llash istiqbollari.
2. Shayxov E.T. va boshqalar Paxtachilik» darslik Toshkent «Mexnat»1990
3. Muxammadjonov M. Zokirov Z. «G'ozda agrotexnikasi» uquv qullanma Toshkent 1995.
4. Ruzmetov R, Ishchanov R, Nabieva U., Ulug'ov CH. "Paxtachilik" uquv qullanma
5. Muxamedjanov M.V., Zakirov A. G'ozda agrotexnikasi, ToShkent, «Mehnat», 1995.